ABDULLA ORIPOV IJODINING O`ZIGA XOSLIGI

Jo'raqulova Durdona Hamidulla qizi
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

Abdusalomova Hayotxon Iqboljon qizi
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Oripov tabiatan shoir edi, shoir ulg‘aygan makon ham uning tuyg‘ularini kamol topib borishiga. Shu barobarida, uning she’riyatga bo‘lgan munosabati shakllanib bordi. Abdulla Oripov o‘ziga xos iste’dod sohibi bo‘lish bilan birga, bu sohada yetarli ilmiy va amaliy bilimlarni egallashi zarur edi. Shu maqsadda shu soha vakillari bo‘lgan ulug‘ ustozlarga ma’naviyshogirdlikka tushdi hamda katta hayot tajribasidan foydalandi.
Kalit so‘zlar: She’riyat, o‘zbek lirikasi, soxtakorlik, quruq shiorbozlik, inja tuyg‘u, inson qalbi, individual qobiliyat, intellekt, simfoniya, vatan, ona tabiat, til sofligi, millat manfaati, samimiyat, haqiqat.

KIRISH

XX asrning o‘rtalari o‘zbek lirikasi davr she’riyatida alohida ahamiyatga ega. Negaki, soxtakorlik, quruq shiorbozlik davom etayotgan tarixiy bir sharoitda inson ko‘ngli, qalbida kechayotgan inja tuyg‘ularni ayta olish ulkan hodisa edi.

Milliy adabiyotimizning fidoyilaridan bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon va Fitratlar boshlab bergan yangi tizim, samimiy misralar, inson qalbimanzarasi inkishofini maqsad qilgan satrlarga ega vazn keyingi she’riyattabiatini belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. XX asr o‘zbek adabiyoti ijod olamiga o‘z so‘zi, ovozi bilan betakror, favqulodda iste’dodga ega bo‘lgan bir guruh shoir va adiblarni ma’naviyatimiz rivoji uchun eng zarur vaqtda taqdim etdi.

Abdulla Oripov mana shunday shoirlar sirasiga kiradi. U she’riyat bilan birga o‘sdi, ulg‘aydi. Xuddi tuyg‘ulari kamol topib, cho‘nglashib borgani kabi adabiyotga qarashi, uning masalalariga muayyan munosabati ham shakllanib bordi. Har bir odam o‘ziga xos individual qobiliyat va intellekt sohibi. Lekin buning o‘zi yetarli emas. Odam ma’lum sohada muayyan natijaga erishishi uchun albatta ilmiy va amaliy maktablarni o‘tamog‘i lozim. Abdulla Oripov mana shu maktabni ulug‘ ustozlarga ma’naviy shogirdlikka tushish, qolaversa, hayot tajribasi yordamida o‘tadi. Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston Davlat madhiyasining muhokamasiga bag‘ishlangan majlisda: “Abdulla Oripovdek shoirlar yuz yilda bir marta dunyoga keladi” [1], deb aytgan edi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Abdulla Oripov lirikasini o‘rganish, she’rlarining biografik asosi va ijodkor shaxsiy kechinmalarining o‘zaro aloqalari chegarasini aniqlab olish, undagi ma’naviy-ruhiy quvvatlarni o‘qish va uqish, hayotiy, falsafiy xulosalardan ibrat olish bugungi avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Shoir badiiy adabiyotga kirib kelgan ilk kunlardan boshlab, Vatan, ona tabiat, til sofligini saqlab qolishga doir mavzularni qalamga oldi. Dastlabki she’rlaridan tortib, to umrining so‘nggi damlarida yozilgan asarlarining barchasida ifodalangan millat manfaati, samimiyat, haqiqatga

xizmat qilish kabi tushunchalar shoir hayotining bosh a'moli ekanligini ko'rsatib turibdi. Shoir umrining so'nggi yillarida xastalik tufayli xorij shifoxonalarida davolandi. Lekin o'sha og'ir damlarida ham bir lahza bo'lsa-da she'riyatdan uzoqlashmadi. Masalan, "Ummon bo'yidagi o'ylar" she'ri yirik hajmda ya'ni 80 misradan iborat. Bu she'r 2015 yil 1 sentabrda yozilgan bo'lib, vatanimiz mustaqillik bayramiga bag'ishlovdir. Shoir garchi jisman og'riqlar iskanjasida bo'lsa ham, qalban yurtidan bir lahza ham ayro tushmaganini guvohi bo'lamiz.

Mening ko'z o'ngimdan har lahza, har damAslo ketgan emas yurtim jamoli.
Uzoq bu ummonda suzib yursam ham,Yuzimga urildi go'yo shamoli.

Goho tig' tagida turib ham vatan kelajagi va ravnaqi borasida o'y surish ulkan jasoratdir. Yaratgandan umid qilganda ham o'z salomatligi emas, balki Vatani kelajagi borasida o'tindi.

Bir umr kurashdik orzular uchun, Havoyi so'z aytib, o'rtama jonni. Dunyo karvonining boshida bir kun Ko'rsam yetarlidir O'zbekistonni[3].

Shoir har jabhada mukammallikni ko'rishni orzu qiladi, dunyoda insof, mehr, diyonat, adolat, vijdon kabi matlablar tobora noyoblashib borayotganligidan tashvishga tushadi. Insonni badiiy-falsafiy talqin qilish shoir ijodida inson talqinining xarakterli xususiyatini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

"She'r – ruhiy holat mahsuli. Ruh va tafakkur birlashgan joyda she'r paydo bo'ladi. She'rning tug'ilishi aks-sadoga bog'liqdir. Miyada muvozanatbuzildimi, uning aksi yo ijobiy, yo salbiy she'rni yaratadi. Fizika fanidagi musbat va manfiy zaryadlarga o'xshash bo'ladi. Adibda taassurot, qarama qarshilik kuchli bo'lganda ajoyib she'rlar tug'iladi"[4]. Ijodkor hayotyo'lidagi dinamikasini, tarixiy va shu bilan birga ginetik tomondan kuzatishga yordam beruvchi usullardan biri biografik metod hisoblanadi.

Darhaqiqat, shoir hayotida ro'y bergan yaxshi hodisalar yoxud dramatizmga boy voqeliklar ana shu kayfiyatni ifoda etuvchi she'rlar yaralishiga zamin tayyorlaydi. Biografik metodning maqsad va vazifasiga ijodkor tarixi va uning ish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni o'rganish kiradi. Biografik metod asosida, o'rganilayotgan shaxs va uni o'rab turgan atrof-muhit ta'siri yotadiki, asarni tahlil yoki talqin etish jarayonida unda aks etgan voqea hodisalar, yo bo'lmasa qahramonlar xarakteri aslida o'z hayotida uchratgan kimsalar xarakteri bilan uzviy bog'liq bo'lishi mumkin.

Mening bitta armonim bor,Kimliging bilmay,
Sen haqingda chiqarmasin birov xulosa. Lekin yuzsiz raqiblaring andisha qilmay, Titkilaydi tarjimai holingni rosa [5].

Bu misralar ham lirik qahramon shaxsiy hayotiga aloqador deya ayta olamiz. Negaki atrofidagi ayrim kimsalarning lirik qahramonga bergan ozori, ba'zi paytlarda tirnoq ostidan kir qidirishlar bu kabi misralarning tug'ilishiga zamin hozirlagandir balki. "Adolat" deb nomlangan yuqoridagi she'rda hasadgo'ylik qoralanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shoir lirikasining deyarli barchasi psixobiografik asosga ega deb ayta olamiz. Lekin o'z navbatida ularni shunchaki shaxsiy kechinma deb qabul qilmaslik kerak. Chunki u odamzotning bir yutug'idan quvonsa, boshqasidan ranjiydi. Biz avlodlar esa buyuk ijodkorlar falsafiy xulosalaridan ibrat olishimiz, adabiy merosini anglashiimiz va amal qilishimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Iqtibos quyidagi manbadan olindi: A.Oripov. Adolat ko'zgusi.-T.: "Adolat" 2005 yil.
2. Ozod ruh falsafasi. I.G'aniev, N.Afoqova. T., "Fan" nashriyoti.

3. Oripov A. Tanlangan asarlar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T., 2016, 221-bet

4. “Go‘zallik qasri”// “Sovet O‘zbekistoni”, 1989 y. 20 sentabr.

5. Oripov A. Tanlangan asarlar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T., 2016, 278-bet.

6. Uzoq Juraqulov. Hududsiz jilva. T;. “Fan” nashriyoti 2006 y. 22-bet.

7. Abdulla Oripov ijodiy konsepsiyasida milliy ma’naviyat masalasi. O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2018, - № 1/3 B. 395-399

8. “She’riyatning mangu qo‘shig‘i”. “Konstitutsiya – inson huquqlari va erkinliklarining kafolati” mavzuidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. TVChDPI . 2019. 29-31 betlar

9. Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA NOGIRONLARNI ZAXIRALANGAN ISH O‘RINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.

10. “Abdulla Oripov lirikasida diniy-ma’rifiy tushunchalar talqini”. Til, adabiyot va tarix masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 2019 y.

11. Abdulla Oripov lirikasining psixobiografik tadqiqi (2009-2016 yillar she’riyati misolida). “Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta’lim: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar to‘plami. Tom 1. Chirchiq, 2019, 71-73 betlar